XORIJIY TIL TA'LIMIDA 5C KOMPETENSIYALARI VA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINI BOG'LASHNING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL MODELI

Ochilova Vazira Rustamovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi
E-mail: vazira.ochilova@gmail.com
F-ORCID: 0009-0009-0562-764X
https://doi.org/10.5281/zenodo.24369126

Annotatsiya. Maqolada xorijiy til ta'limida kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va madaniyatlararo kompetensiya komponentlaridan iborat 5C modelini sun'iy intellekt vositalari bilan bog'lashning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi. Sotsiomadaniy nazariya, interaksiya gipotezasi va vazifaga asoslangan o'qitish, TPACK hamda konstruktiv muvofiqlik g'oyalari qiyosiy-tahliliy usulda o'zaro muvofiqlashtirildi. Natijada kompetensiyaviy maqsad, o'quv faoliyati, sun'iy intellektning pedagogik vazifasi va baholash dalilidan iborat to'rt qatlamli konseptual model taklif etildi. Model sun'iy intellekt har bir komponentda boshqacha rol o'ynashini ko'rsatadi: u mashq muhiti, muhokama manbai, tahlil obyekti yoki ijodiy turtki vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: 5C modeli, sun'iy intellekt, xorijiy til ta'limi, madaniyatlararo kompetensiya, sotsiomadaniy nazariya, TPACK, konstruktiv muvofiqlik, konseptual model

THEORETICAL FOUNDATIONS AND A CONCEPTUAL MODEL FOR LINKING 5C COMPETENCES WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION

Abstract. The article examines the theoretical grounds for linking the 5C model (communication, collaboration, critical thinking, creativity and cross-cultural competence) with artificial intelligence tools in foreign language education. Sociocultural theory, the interaction hypothesis and task-based teaching, the TPACK framework and constructive alignment are compared and reconciled. The outcome is a four-layer conceptual model connecting the competence goal, the learning activity, the pedagogical function of AI and the evidence of learning. The model shows that AI plays a different role in each component, serving as a practice environment, a source for discussion, an object of analysis or a creative prompt.

Keywords: 5C model; artificial intelligence; foreign language education; cross-cultural competence; sociocultural theory; TPACK; constructive alignment; conceptual model

Bugungi bitiruvchidan xorijiy tilni bilishdan tashqari, shu tilda jamoa bilan ishlash, axborotni tekshirib qabul qilish, yangi yechim taklif qilish va boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro tushunishga asoslangan muloqot qurish kutiladi. XXI asr ko'nikmalariga oid xalqaro doiralar aynan shu talablarni tizimga solib, ta'lim mazmunini kompetensiyalar atrofida qayta qurishni taklif etgan (Trilling & Fadel, 2009). Ikkinchi tomondan, 2022-yildan keyin generativ til modellari o'quvchining kundalik vositasiga aylandi: ular matn tuzadi, savolga javob beradi, suhbatdosh rolini o'ynaydi (Kasneci va boshq., 2023).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shu ikki jarayon bir-biridan alohida rivojlanmoqda. Kompetensiyalar haqidagi ishlar texnologiyani deyarli chetlab o'tadi, sun'iy intellekt haqidagi ishlar esa ko'proq vositaning imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Maqolaning maqsadi 5C kompetensiyalarini sun'iy intellekt vositalari bilan bog'lash uchun nazariy tayanchlarni aniqlash va ular asosida xorijiy til ta'limiga moslangan konseptual model taklif qilishdan iborat. Maqolada 5C deganda kommunikatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va madaniyatlararo kompetensiya tushuniladi.

Avval atamani aniqlab olish kerak. Til ta'limi adabiyotida «5C» ikki xil mazmunda uchraydi. AQShning xorijiy tillar standartlarida u kommunikatsiya, madaniyatlar, bog'lanishlar, qiyoslashlar va hamjamiyatlarni anglatadi (ACTFL, 2015). XXI asr ko'nikmalari an'anasida esa P21 tashkiloti ilgari surgan «to'rt C» asos qilib olinadi (Partnership for 21st Century Skills, 2009). Bu ro'yxat keyinchalik turli yo'nalishlarda kengaytirilgan; masalan, M. Fullan va hammualliflari unga xarakter va fuqarolikni qo'shib, «6C» modelini taklif etgan (Fullan, Quinn & McEachen, 2018). Biz qo'llayotgan 5C to'rt C ga madaniyatlararo kompetensiyani beshinchi komponent sifatida qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu tanlov til fanining tabiatidan kelib chiqadi: til madaniyatdan ajralgan holda o'rganilmaydi va hatto ACTFL standartlarida ham madaniyatlar va qiyoslashlar alohida maqsad sifatida ajratilgan. Shu ma'noda taklif etilayotgan 5C ikki an'anani tutashtiradi.

Til ta'limi uchun har bir komponentning o'z nazariy ildizi bor. Kommunikatsiya CEFR dagi retseptiv, produktiv, interaktiv va mediativ faoliyat turlari orqali tavsiflanadi (Council of Europe, 2020). Hamkorlik kooperativ o'qitish nazariyasiga tayanadi (Johnson & Johnson, 1999). Tanqidiy fikrlash tahlil, baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalari majmui sifatida ta'riflangan (Facione, 1990). Ijodkorlikni faqat iste'dodli shaxs sifati deb emas, balki o'quv jarayonida har bir o'quvchida namoyon bo'ladigan «kichik ijodkorlik» sifatida ham ko'rish mumkin (Beghetto & Kaufman, 2007). Madaniyatlararo kompetensiya M. Byram modelida bilim, munosabat, talqin qilish va kashf etish ko'nikmalari hamda tanqidiy madaniy ong orqali tavsiflanadi (Byram, 1997), CEFR Hamroh jildida esa plyurikultural kompetensiya uchun alohida deskriptor shkalalari berilgan (Council of Europe, 2020).

Ta'limda sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlarning tarixi ancha uzun (Luckin va boshq., 2016). Biroq oliy ta'limga oid tizimli sharh bu ishlarning ko'pchiligi texnologiyaga qaratilganini, pedagogik nazariya va o'qituvchi nuqtai nazari esa kam aks etganini ko'rsatgan (Zawacki-Richter va boshq., 2019). B. Williamson va R. Eynon ham sohaning tarixi texnologik optimizm ruhida yozilganini qayd etadi (Williamson & Eynon, 2020). 5C ga yaqin yondashuvda sun'iy intellektni muhokama qilgan ish umumta'lim darajasida qolgan va til fanining o'ziga xosligini alohida ko'rib chiqmagan (Holmes, Bialik & Fadel, 2019). Shunday qilib, sun'iy intellekt har bir C komponentida qanday pedagogik vazifa bajarishini til ta'limi uchun aniq ko'rsatadigan model hozircha yetishmaydi.

Tadqiqot tahliliy-konseptual xarakterga ega va yangi empirik ma'lumot to'plashni ko'zlamaydi. Ilmiy manbalar va me'yoriy hujjatlar tahlili, nazariy yondashuvlarni qiyoslash, tizimlashtirish hamda pedagogik modellashtirish usullari qo'llanildi. Manbalar mavzuga bevosita aloqadorligi, ilmiy nashr yoki xalqaro hujjat maqomi va modelni asoslashdagi o'rni bo'yicha tanlandi.

Modelga to'rtta nazariya tayanch bo'ldi. L.S. Vygotskiy yondashuviga ko'ra inson bilimi boshqalar bilan muloqot va madaniy vositalar yordamida quriladi (Vygotsky, 1978), til o'zlashtirish ham shu jarayondan ajralmaydi (Lantolf & Thorne, 2006). Bu nuqtai nazardan sun'iy intellekt fikrlashni vositalashtiradigan yangi artefakt bo'lib, vaqtinchalik iskala vazifasini o'taydi. Interaksiya gipotezasi ma'noni kelishib olish til o'zlashtirishga xizmat qilishini (Long, 1996), vazifaga asoslangan o'qitish esa ma'noli muloqot vazifasining markaziy o'rnini asoslaydi (Ellis, 2003). TPACK texnologik, pedagogik va

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

fan mazmuniga oid bilimlarni birga ko‘rishni talab qiladi (Mishra & Koehler, 2006). Konstruktiv muvofiqlik esa o‘quv natijasi, faoliyat va baholash bir-biriga mos bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi (Biggs & Tang, 2011).

To‘rt nazariyani bir-biriga qo‘yib chiqqanda modelning qatlamlari o‘z-o‘zidan ajralib chiqadi. Birinchi qatlam kompetensiyaviy maqsad bo‘lib, u konstruktiv muvofiqlikdan kelib chiqadi. Ikkinchi qatlam o‘quv faoliyati bo‘lib, uni vazifaga asoslangan o‘qitish va interaksiya gipotezasi belgilaydi. Uchinchi qatlam sun’iy intellektning pedagogik vazifasidir; uni tanlashda TPACK va sotsiomadaniy nazariya yo‘naltiradi. To‘rtinchi qatlam baholash dalili bo‘lib, u yana konstruktiv muvofiqlikka qaytadi va doirani yopadi. Bu tuzilmada texnologiya qatlami mustaqil emas: vosita yuqoridagi maqsad va faoliyatga, pastdagi baholashga qarab tanlanadi. 5C komponentlari bo‘yicha qatlamlarning to‘ldirilishi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

5C komponentlari bo‘yicha konseptual modelning qatlamlari

Komponent	Kompetensiyaviy maqsad	SI ning pedagogik vazifasi va faoliyat	Baholash dalili
Kommunikatsiya	Vaziyatga mos, aniq va ravon og‘zaki va yozma nutq	Mashq muhiti: suhbat agenti bilan rolli muloqot; o‘z nutqining yozuvini tahlil qilish	Nutq yozuvlari; CEFR deskriptorlari asosidagi rubrika
Hamkorlik	Guruhda rollarni taqsimlab, umumiy mahsulot yaratish	Muhokama manbai: SI taklif qilgan rejani guruh birgalikda baholab, qaror qabul qiladi	Guruh ish jurnali; tengdoshlar bahosi
Tanqidiy fikrlash	Dalil va manbani baholash, xato va bir yoqlamalikni topish	Tahlil obyekti: SI javobidagi asossiz da’vo va noaniqlikni topib, tuzatish	Izohlangan matn; tuzatishlar asoslanishi
Ijodkorlik	O‘z g‘oyasi va matnini yaratish, mavjudini qayta ishlash	Ijodiy turtki: SI variantlari tanlanadi, o‘zgartiriladi, o‘quvchi ovozi qo‘shiladi	Matn versiyalari; o‘z hissasi haqida bayonot
Madaniyatlararo kompetensiya	Madaniy farqni tushunish, talqin qilish va muloqotni moslashtirish	Tahlil obyekti va muhokama manbai: SI matnidagi madaniy stereotipni topish; madaniy kontekstlarni qiyoslash	Refleksiv esse; madaniy vaziyat tahlili

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadvalning asosiy xulosasi uchinchi ustunda ko‘rinadi. Kommunikatsiyada sun’iy intellekt mashq imkoniyatini kengaytiradi va bu chat-botlar bo‘yicha tizimli sharh natijalariga mos keladi (Huang, Hew & Fryer, 2022). Tanqidiy fikrlashda esa vaziyat teskari: vosita o‘quvchiga yordam beruvchi emas, o‘quvchi tekshiradigan obyektga aylanadi. Katta til modellari noto‘g‘ri yoki asossiz javob berishi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

mumkinligi (Kasneci va boshq., 2023) bu yerda kamchilik emas, o'quv materialidir. Ijodkorlikda vosita tayyor yechim emas, boshlang'ich turtki bo'lib qoladi, mualliflik esa o'quvchida saqlanadi (Godwin-Jones, 2022). Hamkorlikda sun'iy intellekt chiqargan natija guruh muhokamasi uchun material bo'ladi. Madaniyatlararo kompetensiyada esa vosita ikki tomonlama ishlaydi: u turli madaniy kontekstlarni qiyoslash uchun material beradi, ayni paytda uning javobidagi madaniy umumlashtirish va stereotiplar o'quvchi tanqidiy tekshiradigan obyektga aylanadi.

Bizningcha, bu farqlash ikki jihatdan muhim. Birinchidan, u «sun'iy intellekt yordamchi vosita» degan umumiy talqindan voz kechib, uning har bir kompetensiyadagi rolini aniq nomlashga imkon beradi. Ikkinchidan, baholash dalili oldindan belgilangani sababli o'qituvchi faqat yakuniy mahsulotni emas, kompetensiya qanday shakllanganini ham ko'radi. Shu bilan birga, model empirik jihatdan sinalmagan va uni amaldagi natija emas, tekshirilishi lozim bo'lgan nazariy gipoteza sifatida qabul qilish to'g'ri.

Tahlil 5C kompetensiyalari va sun'iy intellektni bog'lash uchun to'rt nazariya, ya'ni sotsiomadaniy nazariya, interaksiya va vazifaga asoslangan o'qitish, TPACK va konstruktiv muvofiqlik yetarli va bir-birini to'ldiruvchi tayanch bo'lishini ko'rsatdi. Ular asosida qurilgan to'rt qatlamli model maqsad, faoliyat, vosita va baholash dalilini bir zanjirga bog'laydi. Sun'iy intellektning pedagogik vazifasi komponentga qarab o'zgaradi va bu o'zgarishni dars loyihalashda oldindan hisobga olish kerak. Keyingi bosqichda modelni amaliyotga joriy etish tamoyillari va bosqichlarini ishlab chiqish hamda uni kvazi-eksperimental tadqiqotda sinash zarur.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. ACTFL. (2015). World-readiness standards for learning languages (4th ed.). American Council on the Teaching of Foreign Languages.
2. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (2007). Toward a broader conception of creativity: A case for "mini-c" creativity. Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, 1(2), 73–79.
3. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for quality learning at university (4th ed.). McGraw-Hill/Open University Press.
4. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.
5. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing.
6. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.
7. Facione, P. A. (1990). Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instruction (The Delphi Report). California Academic Press.
8. Fullan, M., Quinn, J., & McEachen, J. (2018). Deep learning: Engage the world, change the world. Corwin.
9. Godwin-Jones, R. (2022). Partnering with AI: Intelligent writing assistance and instructed language learning. Language Learning & Technology, 26(2), 5–24.
10. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign.
11. Huang, W., Hew, K. F., & Fryer, L. K. (2022). Chatbots for language learning—Are they really useful? A systematic review of chatbot-supported language learning. Journal of Computer Assisted Learning, 38(1), 237–257.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.